

## Irodamiz o'z-o'zimizni idora etishda

Joriy yilning 04 dekabr kun 2-ma'ruzalar zalida Yoshlar bilan ishlash bo'yicha prorektor R.Q.Choriev, "Gidrotexnika qurilishi" fakulteti dekani B.B.Hasanov, dekan o'rinbosarlari A.I.Azimov, B.A.Normo'minov, S.B.Ro'ziyev, A.B.Xalimbetov, "Talabalar turar joylari" direktori I.Buxorov, 2-sonli TTJ mudiri U.Allayarov hamda TTJda yashayotgan 132 nafar talabalar ishtirokida "Talabalar turar joyida o'zini-o'zi boshqarish tizimini joriy etish" mavzusida davra suhbati o'tkazildi. B.B.Hasanov so'zga chiqib, TTJda o'zini-o'zi boshqarish tizimi shakllantirilganligi, Talabalar Kengash raisi va a'zolari saylanganligi, ularning faoliyatini Nizom asosida tashkil etilishi to'g'risida ma'lumot berdi va so'zni Yoshlar bilan ishlash bo'yicha prorektor R.Q.Chorievga berdi.



R.Q.Choriev, talabalarga TTJda yashash ichki-tartib va qoidalari, shaxsiy gigena, talabalarning o'zlarini tutishi hamda o'zlar yashab turgan xonalar va qavatlarning tozaligini saqlashlari hamda darsdan keyingi bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishlari uchun tavsiya va takliflarni berdi. Darsdan keyin ishlaydigan talabalarga o'z tavsiyalarini berib, TTJning ichki-tartib qoidalari bo'yicha saat 23:00 dan kechikmasdan TTJga yetib kelishlari lozimligini ta'kidladi. Talabalarning savollariga prorektor, dekan va TTJ direktori asosli javob berishdi, tadbir mazmunli tarzda o'tdi.

**"GTQ" fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari A.I.Azimov axboroti**

**Institut Matbuot xizmati rahbari Rahimboy Jumaniyozov**